

# Vazir Surxondaryoda jurnalist va blogerlar bilan uchrashdi



Vazir Surxondaryoda jurnalist va blogerlar bilan uchrashdi

Termiz shahrida Bosh vazir o'rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.Umurzakov mahalliy jurnalist va blogerlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv davomida tadbirkorlar va eksportchilar o'z faoliyatida duch kelayotgan muammolar, hududda biznes sharoitlarini yaxshilash masalalari, sanoat salohiyatini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratildi.

Jurnalist va blogerlar investitsiyaviy muhitni yaxshilash, tadbirkorlar va mahalliy aholining dolzarb muammolarini zudlik bilan aniqlash jarayonlariga jalb qilishni kuchaytirish, shuningdek, mutasaddi vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari bilan yaqin hamkorlik mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha takliflar bildirdilar.


Mutasaddi rahbarlarga suhbat davomida ko'tarilgan muammolarning tezkor hal

Image not found or type unknown

qinisi ustidan nazoratni kuchaytirish topshirildi.



Image not found or type unknown






Image not found or type unknown

